ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEONIMLARNING TADQIQI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Usmonaliyev Shahboz,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Teonimlar turli xalqlar o'rtasidagi madaniy va diniy aloqalarni, til taraqqiyoti jarayonida yuz bergan leksik o'zlashish va semantik moslashuvlarni ochib beradi. Teonimlar ustida tadqiqot olib borish tilshunoslikda onomastik tizimning ichki tuzilishini aniqlash hamda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Teonim (yunoncha *teos – xudo (Olloh) + onoma – atoqli ot*) – Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi[1]. Ular nafaqat diniy e'tiqod tizimining markazida turadi, balki madaniyat, tarix, adabiyot, falsafa va tilning o'zaro aloqalarini yoritishda muhim fanlararo ko'prik vazifasini bajaradi. Jahon tilshunosligida teonimlarga bo'lgan qiziqish, asosan, dinshunoslik, mifologiya, madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika sohalari kesishmasida vujudga kelgan.

Dunyo tilshunosligida teonimlarning o'rganilishi va tadqiqi masalalari I.Stebleva, O. Suxareva, G.Sanesarev, T.Bayaliyeva va G.Y.Sizranova kabi olimlar tadqiqotlarida batafsil yoritilgan[2].

O'zbek tilshunosligida esa teonimlarga oid tadqiqotlar N.Uluqov, M.Galiyeva, Sh.Yusupova, J.Omonturdiyev va A.Omonturdiyevlar, A.Xolmatov, R.Nuriddinova, N.Xusanov kabi olimlar tomonidan olib borilgan[3].

Teonimlar o'z tabiati jihatidan faqatgina ilohiy zotga nisbatan nomlash funksiyasini emas, balki matn ichida muayyan pragmatik va stilistik vazifani ham bajaradi. Bunday kontekstual rol teonimlarning diskursdagi semantik qamrovini kengaytiradi va ularni oddiy nomlash birliklaridan tashqariga olib chiqadi. Ayniqsa, tarixiy jarayonlar bilan bog'liq rivoyat, xotira va ta'riflarda teonimlarning stilistik vosita sifatidagi ishtiroki matnning diniy-estetik fonini mustahkamlovchi element sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunga kelib, teonimlarning lingvistik tadqiqiga oid izlanishlarda ancha ildam qadam tashlanishiga qaramay, u bilan bog'liq ayrim muammolar, bahslar hali-hanuz davom etmoqda.

Birinchidan, teonim tushunchasining o'zi har doim ham tor ma'noda, faqat xudo nomlari sifatida emas, balki keng talqinda har qanday muqaddas deb hisoblangan shaxslar, joylar yoki diniy tushunchalarni ifodalovchi nomlar bilan aralashtirib qo'llanmoqda. Bunday kengaytirilgan yondashuv esa teonimiya doirasini haddan ortiq noaniq qilib qo'ymoqda, bu esa ularni agnonimlar (avliyo yoki muqaddas shaxs va narsalar nomi), nekronimlar (qabriston, mozor, ziyoratgoh nomlari) yoki diniy-toponimik birliklar bilan chalkashtirishga olib keladi.

Ikkinchidan, teonimlarning tildagi sinonimik variantlari – masalan, Alloh, Tangri, Xudo, Yaratgan, Yazdon kabi nomlarning shakllari, ularning fonetik-dialektal dubletlari (Alloh – Olloh – Ollo), arabcha sifatlar bilan uyg'un variantlari (hakim, qodir, jabbor, qahhor, g'affor va b.) – bularning barchasi teonim sifatida tan olinadimi, yo'qmi, degan masala hozirgacha ochiq qolmoqda. Ushbu nomlar ba'zan Yaratuvchi nomining turli variantlari sifatida turdosh ot, ba'zida esa atoqli ot maqomida talqin qilinishi ularning imloviy, morfologik va kontekstual tahlilini ham murakkablashtiradi. Bu esa teonimlarning onomastik

[1] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 75.

[2] Стеблева И. Очерки турецкой мифологии: По материалам волшебной сказки. – Москва: Восточная литература, 2002; Сухарева О. А. Ислам в Узбекистане. – Ташкент: Издательство Академии наук узбекской ССР, 1960; Снесарёв Г.П. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980; Баялиева Т.Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов. – Фрунзе (Бишкек): Илим, 1972; Сызранова Г.Ю. Ономастика. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – 248 с.

[3] Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. Автореф. – Тошкент, 1997; Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019; Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. Автореф. – Фарғона, 2021; Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар луғати. – Тошкент, 2014; Xolmatov A. Teonimiya haqida umumiy tushuncha // O'zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent, 1993. – B. 84-84; Nuriddinova R. O'zbek teonimlari xususida // Adabiyot gulshani. 2-qism. – Navoiy, 2004. – B. 91-93; Xusanov N. Teonimlar – Al-Asmo-al Husnoning lisoniy xususiyatlari // Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi masalalari. – Namangan, 2024.

mavqeyi hanuzgacha izohtalab ekanini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, teonimlar nafaqat nominativ vazifani, balki tilda ma’lum bir stilistik, emotsional va diniy-estetik vazifani ham bajaradi. Shu jihatdan ularning kontekstdagi funksional o‘rni, nutqdagi uslubiy roli va madaniy-falsafiy qiyosi chuqur lingvopragmatik yondashuvni talab etadi. Afsuski, ko‘pchilik tadqiqotlarda teonimlar faqat til birliklari sifatida emas, balki diniy tushunchaning izohi tarzida yuzaki ko‘rib chiqiladi, bu esa tahlilni cheklaydi va ilmiy-tadqiqiy mezonlarning zaifligiga olib keladi.

Yuqoridagi muammolar shuni ko‘rsatadiki, teonimlarni o‘rganishda, avvalo, ularning terminologik aniqligi, semantik doirasi, atributiv shakllari va kontekstual qo‘llanishiga doir mezonlar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, teonimlarni agionim va nekronimlardan farqlash, yoxud ularni alohida tur yoki teonimning tarkibiy qismi sifatida taqdiq etish vazifasini qo‘yadi. Xususan, professor E.Begmatov ham o‘z tadqiqotlarida teonimlar masalasiga to‘xtalib, ularni tarkibiy qismlarga ajralmaydigan makroko‘lam sifatida e’tirof etadi[1]. Olimning fikricha, bu tip nomlarga kengroq ma’noda ilohiylashtirilgan narsa va buyumlarning, diniy mazmun tashuvchi rasm-rusumlar, diniy adabiyotlarning atoqli otlarini kiritish mumkin[2].

Tilshunos olim Y.Avlakulov esa bu masalaga quyidagicha fikr bildiradi: «…Shunga ko‘ra, teonim (teonimiya) deyilganda faqat Allohning nomi (nomlari)ni tushunish, agnonim (agnonimiya) deyilganda muqaddas deb bilinuvchi narsalar va shaxslar nomini anglash, nekronimlar deyilganda esa ushbu termin anglatuvchi ma’noga mos ravishda qabrlar, qabristonlar (mozorlar, mozoristonlar), shuningdek ba’zi diniy obyektlar nomi (masjid, madrasa, honaqo kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir[3]. Shuningdek, tadqiqotchilar A.Primov va N.O‘rozovalarning tadqiqlarida ham teonim deganda, faqat Alloh va uning ismi sifatlarini tushunish, din konsepsiyasini ifodalovchi qolgan nomlar esa diniy-ilohiy tushuncha bilan bog‘liq nomlar sifatida e’tirof etish kerakligi aytib o‘tilgan[4].

Shuningdek, professor N.Uluqov diniy tushuncha va tasavvurlarga, muqaddas dargohlarga berilgan nomlarni, payg‘ambar va avliyolarning ismlarini shartli ravishda teonimlar sifatida tadqiq etgani va ularni leksik-semantik jihatdan ba’zi ma’noviy guruhlarga ajratganini ko‘rish mumkin[5].

Shunday qilib, teonimlarni o‘rganish faqatgina nominativ birliklar darajasida emas, balki xalqning diniy idroki, madaniy xotirasi va konseptual dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq holda yondashishni talab etadi. Chunki har bir teonim o‘zida ma’lum bir davrning diniy-madaniy muhitini, e’tiqod tizimini va tafakkur darajasini aks ettiradi. Ularning semantik tuzilmasida denotativ jihatdan Yaratuvchining o‘zi, konnotativ jihatdan esa e’tiqod, tavozu, rahm-shafqat, qudrat kabi his-tuyg‘ular ifodalanadi. Shu bilan birga, teonimlarning tildagi imloviy, morfologik va stilistik variantlari ularni tizimli o‘rganishni yanada murakkablashtiradi. «Alloh», «Olloh», «Yaratgan», «Tangri» kabi shakllar bir vaqtning o‘zida sinonimik, fonetik yoki dialektal xususiyatlar kasb etishi, shuningdek, Allohning ismi sifatlari, payg‘ambar nomlari, muqaddas joy va sura (oyat) nomlarining onomastik maqomini aniq belgilashni talab etadi. Bu jihatdan teonimlar tizimini o‘rganishda terminologik aniqlik va metodologik izchillik zarur. Chunki ularni ba’zan agionim, nekronim yoki diniy-toponimik birliklar bilan aralashtirib qo‘llash ilmiy natijalarning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur masalaga doir olimlar fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, E. Begmatov va N. Uluqovlarning yondashuvlari o‘zining ilmiy asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. E. Begmatov teonimlarni tarkibiy jihatdan ajralmaydigan makroko‘lam sifatida e’tirof etishi ularning til tizimidagi keng semantik imkoniyatlarini ochib beradi. N. Uluqov fikricha esa teonimlarning leksik-semantik jihatdan guruhlarga ajratilishi bu birliklarning tildagi o‘rni va funksional xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Mazkur ikki olimning fikrlariga qo‘shilgan holda, teonimlarni o‘rganishda ularning faqat Yaratuvchining nomlari bilan chegaralanmasdan**,** balki muqaddaslik konseptiga ega onomastik birliklar tizimi sifatida tahlil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Natijada, teonimlarni tadqiq etishda ularning semantik doirasi, atributiv shakllari va kontekstual qo‘llanish mezonlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ularni aniq turlarga ajratish, agionim va nekronimlardan farqlash, shuningdek, teonimlarning madaniy, tarixiy va diskur-

[1] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 42.

[2] Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 17-18 // Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 18-б.

[3] Авлақулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008. – Б. 15-18.

[4] Primov A., O‘rozova N. O‘zbek tili teonimlarini o‘rganish masalalariga doir // Til tizimi sathlari: semantik-funksional va sruktur asoslar. – Samarqand, 2009. – B. 55-59.

[5] Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. ...дисс: Автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 17-18; O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar // O‘zbek tilshunosligining va adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon, 2001. – B. 44-45.

siv funksiyalarini aniqlash onomastika sohasining yangi yo‘nalishlarini ochib beradi. Shu ma’noda, teonimlarning tildagi mavjudligi, semantik rivoji va madaniy funksiyasi ularning nafaqat nomlash, balki milliy tafakkur va ma’naviy merosni ifodalovchi vosita ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi, ularning semantik-funksional xususiyatlari hamda ilmiy talqinidagi muammolar yoritilgan. Shuningdek, maqolada teonimlarni o‘rganishdagi asosiy muammolar – terminologik noaniqlik, turlarga ajratishdagi qarama-qarshiliklar hamda metodologik mezonlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani – tahlil qilinib, ularni hal etish yo‘llari sifatida aniq semantik va kontekstual yondashuvlar taklif etiladi.

Резюме. В данной статье рассматривается исследование теонимов в узбекском языкознании, их семантико-функциональные особенности, а также существующие проблемы в научной интерпретации. Кроме того, анализируются основные трудности в изучении теонимов – терминологическая неопределённость, противоречия в их классификации и недостаточная разработанность методологических критериев. В качестве путей их решения предлагаются чёткие семантические и контекстуальные подходы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BIRINCHI TILNI O‘ZLASHTIRISHGA OID NAZARIYALAR

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti uiversiteti
tayanch doktoranti

Tilni o‘zlashtirish inson tafakkurining eng murakkab jarayonlaridan biri bo‘lib, qadimdan ushbu hodisaga doir turli nazariy qarashlar mavjud. Til o‘zlashtirishga oid dastlabki qarashlar yunon falsafasiga borib taqaladi. Xususan, Aflotun so‘zlar tug‘ma ravishda u yoki bu shaklda namoyon bo‘lishi haqidagi g‘oyani ilgari surgan. Sanskrit grammatikasida insonning so‘z ma’nosini bilish qobiliyati qayerdan paydo bo‘lishi haqida turli bahslar, jumladan, *qobiliyat tug‘mami yoki ajdodlar tomonidan o‘tib keladigan hodisa, yoki barcha uchun umumiy o‘rnatilgan qoidalardan kelib chiqadimi,* degan munozaralar mavjud bo‘lgan. Faylasuflar odamning qanday qilib tilni tushunish hamda undan foydalanish qobiliyatini egallashlari masalasiga qiziqishgan, ammo aksariyat hollarda tilni egallash insonning bilim olish hamda dunyoni anglash qobiliyatining bir qismi sifatida baholangan. Dekart tilshunoslikka oid qarashlarida til o‘zlashtirishni aqliy faoliyatning bir qismi sifatida ko‘radi hamda tilning grammatik tuzilishidagi asosiy xususiyatlar barcha tillar uchun umumiy ekanligi haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi[1]. Ushbu nazariy qarashlar keyinchalik psixolingvistik tahlillarning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi mumkin.

Bugungi kun jahon tilshunosligida, jumladan, ingliz tili ona tili sifatida o‘zlashtirilishiga oid e’tirofga arzigulik tadqiqotlar ichida Amerikalik psixolingvist, fanga muhim ilmiy xulosalarni bera olgan hamda bolalar til o‘zlashtirishining mustaqil nutq shakliga qadar barcha bosqichlarini teran tadqiq qilgan professor Eve Clarkning «First Language Acquisition» kitobida 1915-yillardan boshlab psixolingvistika sohasidagi barcha tadqiqotlarning sharhi keltirilgan[2].

Eve Clarkning tadqiqot ishida bolalarning til

[1] Саидахмедова О. И. Табиий тартиб гипотезасининг ўзбек тили учун талқини. – Тошкент: ТошДЎТУ, 2021. – 24 б.
[2] Clark E. First Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – P. 572.